2011-yilda BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi (UNEP) tomonidan e'lon qilingan "Yashil iqtisodiyotga yo'l" (Towards a Green Economy) hisoboti yashil investitsiyalar tushunchasini institutsional jihatdan rasmiylashtirdi va uni issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish, energiya va resurs samaradorligini oshirish hamda biologik xilmaxillikni yo'qotishning oldini olishga qaratilgan davlat va xususiy kapital qo'yilmalari sifatida ta'rifladi. Shundan so'ng yashil investitsiyalar nazariyasi tez sur'atlarda rivojlanib, 2015-yildan keyin "yashil moliyalashtirish" (green finance), "iqlim moliyalashtirish" (climate finance) va "barqaror moliyalashtirish" (sustainable finance) kabi qo'shni tushunchalar bilan birgalikda mustaqil ilmiy yo'nalishga aylandi. Hozirgi, to'rtinchi bosqichda (2020-yillardan boshlab) yashil investitsiyalar nazariyasi raqamli texnologiyalar — sun'iy intellekt, "katta ma'lumotlar" (Big Data) va blokcheyn tizimlari bilan integratsiyalashuv jarayonini boshdan kechirmoqda, bu esa "yashil raqamli investitsiyalar" (green digital investments) kabi yangi gibridd tushunchalarning shakllanishiga olib kelmoqda.

1-jadval. Yashil investitsiyalar nazariyasining evolyutsion rivojlanish bosqichlari<sup>1</sup>

Bosqich	Davr	Asosiy mazmuni	Yetakchi vakillari / hujjatlari
I bosqich — genezis	1960–1986-y.	Atrof-muhit iqtisodiyoti, tashqi samaralar nazariyasi	A. Pigu; BMT Stokgolm konferensiyasi (1972)
II bosqich — konseptuallashuv	1987–2000-y.	Barqaror rivojlanish, ekologik iqtisodiyot	Brundtland hisoboti; H. Daly; R. Costanza
III bosqich — institutsionallashuv	2001–2014-y.	Yashil iqtisodiyot, Yashil Yangi Bitim, UNEP dasturlari	E. Barbier; UNEP (2011); N. Stern
IV bosqich — moliyaviylashuv va raqamlashuv	2015-y. — hozirgi kungacha	Yashil moliyalashtirish, taksonomiyalar, ESG, raqamli integratsiya	Parij bitimi; YI "Yashil bitim"; ICMA GBP

## 1.2. Xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning yashil investitsiyalar tushunchasiga oid yondashuvlari

"Yashil investitsiyalar" tushunchasining ko'p qirrali va kompleks xarakterga ega ekanligi sababli jahon iqtisodiy fanida ushbu kategoriyaga nisbatan yagona, umume'tirof etilgan ta'rif shakllanmagan. Tadqiqot doirasida xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning yashil investitsiyalar tushunchasiga oid asosiy ta'riflari tizimli tarzda to'plandi va qiyosiy tahlil qilindi (2-jadval).

2-jadval. Xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning "yashil investitsiyalar" tushunchasiga oid ta'riflari<sup>2</sup>

No	Olim	Mamlakat / hudud	Yashil investitsiyalar tushunchasiga berilgan ta'rif
1	Edward B. Barbier	Xorijiy	"Yashil investitsiyalar — iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir vaqtda ekologik xavflarni kamaytirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalardir."
2	Nicholas Stern	Xorijiy	"Yashil investitsiyalar — kam uglerodli iqtisodiyotni shakllantirish, iqlim o'zgarishi ta'sirini yumshatish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiluvchi investitsiyalar hisoblanadi."
3	Robert Costanza	Xorijiy	"Yashil investitsiyalar — iqtisodiy foyda bilan birga ekologik va ijtimoiy samaradorlikka erishishni maqsad qilgan uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalardir."
4	Sergey Bobylev	MDH	"Yashil investitsiyalar — atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, resurs tejankor texnologiyalarni joriy qilish va ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan investitsiyalardir."

1 Manba: muallif tomonidan ilmiy adabiyotlar va xalqaro hujjatlar asosida tizimlashtirilgan.

2 Manba: muallif tomonidan xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning yondashuvlari asosida tuzilgan.



No	Olim	Mamlakat / hudud	Yashil investitsiyalar tushunchasiga berilgan ta'rif
5	Vladimir Zakharov	MDH	“Yashil investitsiyalar — iqtisodiyotni ekologizatsiya qilish va tabiat bilan iqtisodiy faoliyat o'rtasida muvozanatni ta'minlash uchun jalb qilinadigan moliyaviy resurslardir.”
6	Natalya Pakhomova	MDH	“Yashil investitsiyalar — innovatsion va ekologik toza texnologiyalarga yo'naltirilgan hamda barqaror iqtisodiy o'sishga xizmat qiluvchi investitsion faoliyat shaklidir.”
7	A.M. Sadikov	Mahalliy	“Yashil investitsiyalar — milliy iqtisodiyot tarmoqlarida energiya va resurs tejamkorligini ta'minlash, ekologik barqarorlikni kuchaytirishga xizmat qiluvchi investitsiyalardir.”
8	Sh.X. Nazarov	Mahalliy	“Yashil investitsiyalar — hududlarni barqaror rivojlantirish, ekologik xavflarni kamaytirish va aholi turmush sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan kapital qo'yilmalar hisoblanadi.”
9	B.B. Berkinov	Mahalliy	“Yashil investitsiyalar — iqtisodiy samaradorlikni ekologik mezonlar bilan uyg'unlashtirgan holda innovatsion va raqamli texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan investitsiyalardir.”
10	Xursandov K.M. (muallif)	Mahalliy	Yashil investitsiyalar — iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasi, resurs tejamkorligi, ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan innovatsion hamda ijtimoiy mas'ul moliyaviy qo'yilmalar tizimidir.

Keltirilgan ta'riflarning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy olimlar (Barbier, Stern, Costanza) yashil investitsiyalarni asosan makroiqtisodiy va global nuqtai nazardan — iqtisodiy o'sish, kam uglerodli rivojlanish va uzoq muddatli moliyaviy samaradorlik kontekstida talqin qiladilar. MDH mamlakatlari olimlari (Bobylev, Zaxarov, Pahomova) ushbu tushunchaga ko'proq iqtisodiyotni ekologizatsiya qilish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish va ekologik xavfsizlik nuqtai nazaridan yondashadilar. Mahalliy olimlar (Sadikov, Nazarov, Berkinov) esa yashil investitsiyalarni hududiy va tarmoqiy amaliy jihatdan — milliy iqtisodiyot tarmoqlarida resurs tejamkorligi, hududlarni barqaror rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish nuqtai nazaridan ta'riflaydilar. Shu bilan birga, barcha yondashuvlarda quyidagi umumiy jihatlar kuzatiladi: birinchidan, yashil investitsiyalar kapital qo'yilma (moliyaviy resurs) xarakteriga ega; ikkinchidan, ularning bosh maqsadi ekologik xavf va zararni kamaytirish; uchinchidan, ular barqaror iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi; to'rtinchidan, ular innovatsion-texnologik jihatlar bilan uzviy bog'liqdir.

Yuqorida keltirilgan ta'riflarni umumlashtirish hamda ularning umumiy va o'ziga xos jihatlarini hisobga olish asosida muallif tomonidan yashil investitsiyalarning quyidagi kompleks ta'rifi ishlab chiqildi: yashil investitsiyalar — iqtisodiy o'sishni ta'minlash bilan bir qatorda atrof-muhit muhofazasi, resurs tejamkorligi, ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashga qaratilgan innovatsion hamda ijtimoiy mas'ul moliyaviy qo'yilmalar tizimidir. Ushbu ta'rif, birinchidan, yashil investitsiyalarning iqtisodiy (o'sish, samaradorlik), ekologik (resurs tejamkorligi, xavflarni kamaytirish) va ijtimoiy (mas'uliyat) jihatlarini bir butun tizim sifatida qamrab oladi; ikkinchidan, ularning innovatsion xarakterini alohida ta'kidlaydi, bu esa zamonaviy raqamli iqtisodiyot sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi.

### 1.3. Yashil investitsiyalar nazariyasidagi asosiy ilmiy maktablar va paradigmalari

Yashil investitsiyalar tushunchasining nazariy negizini turli iqtisodiy maktablar nuqtai nazaridan tahlil qilish ularning metodologik kelib chiqishini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Tadqiqot davomida to'rtta asosiy nazariy yondashuv aniqlandi.

Neoklassik yondashuv ekologik muammolarni “bozor muvaffaqiyatsizligi” (market failure) nuqtai nazaridan tahlil qiladi. A. Pigu tomonidan asoslangan “tashqi samaralar” nazariyasiga ko'ra, ekologik zarar — bozor tomonidan to'g'ri baholanmagan tashqi xarajat bo'lib, uni soliq (Pigu solig'i) yoki subsidiya mexanizmlari orqali “internallashtirish” lozim. Ushbu yondashuvda yashil investitsiyalar davlat tomonidan moliyaviy rag'batlantirish (soliq imtiyozlari, subsidiyalar) orqali kengaytiriladigan vosita sifatida talqin qilinadi.

Ekologik iqtisodiyot maktabi (H. Daly, R. Costanza) neoklassik yondashuvdan farqli o'laroq, iqtisodiyotni ekotizimning ajralmas qismi sifatida ko'radi va “kuchli barqarorlik” (strong sustainability) konsepsiyasini ilgari suradi, ya'ni tabiiy kapitalni sun'iy (ishlab chiqarilgan) kapital bilan to'liq almashtirib bo'lmaydi. Ushbu yondashuv bo'yicha yashil investitsiyalarning asosiy vazifasi — tabiiy kapital zaxiralarini saqlash va tiklashdir.



Institutsional iqtisodiyot maktabi yashil investitsiyalarning rivojlanishini institutlar (qonunlar, normalar, davlat siyosati va bozor institutlari) sifati bilan bevosita bog'liq deb hisoblaydi. Ushbu yondashuv tarafdorlari fikricha, yashil investitsiyalarning hajmi va sifati ko'p jihatdan mulkchilik huquqlarining aniqligi, sud tizimining mustaqilligi hamda davlat boshqaruvi shaffofligiga bog'liq.

Nihoyat, "Porter gipotezasi" nomi bilan mashhur bo'lgan innovatsion-raqobat yondashuvi (M. Porter, C. van der Linde, 1995) ekologik standartlarni korxonalar uchun ortiqcha yuk emas, balki innovatsion faollikni rag'batlantiruvchi va uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlovchi omil sifatida talqin qiladi. Bugungi kunda zamonaviy ESG (Environmental, Social, Governance) va barqaror moliya paradigmasi aynan ushbu to'rtta nazariy yondashuvning sintezi asosida shakllangan bo'lib, u investitsiya qarorlarini qabul qilishda moliyaviy daromadlilik bilan bir qatorda ekologik va ijtimoiy ta'sirni ham hisobga olishni talab qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot uslubi jihatdan tizimli yondashuv, tarixiy-mantiqiy tahlil, qiyosiy-tipologik tahlil, kontent-tahlil hamda terminologik tahlil metodlarining uyg'unlashtirilgan qo'llanilishiga asoslangan. Tadqiqot obyekti sifatida "yashil investitsiyalar" tushunchasini turlicha talqin qiluvchi xorijiy, MDH va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlari, monografiyalari, maqolalari hamda xalqaro tashkilotlarning rasmiy hisobotlari tanlab olindi.

Manbalarni to'plash bosqichida Scopus, Web of Science va Google Scholar xalqaro ilmiy-bibliografik bazalari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tan olingan milliy ilmiy nashrlar tahlil qilindi. Umumiy hisobda 1970–2025-yillar oralig'ida nashr etilgan 55 dan ortiq ilmiy manba ko'rib chiqildi, ulardan "yashil investitsiyalar" tushunchasiga bevosita ta'rif beruvchi 9 ta asosiy ilmiy manba (3 ta xorijiy, 3 ta MDH va 3 ta mahalliy olim asarlari) chuqur kontent-tahlil obyekti sifatida tanlandi.

Tadqiqot metodologiyasi quyidagi to'rt bosqichni o'z ichiga oladi: birinchi bosqichda — manbalarni to'plash va dastlabki saralash, mavzuga doir adabiyotlarni xronologik tartibda tizimlashtirish amalga oshirildi; ikkinchi bosqichda — kontent-tahlil metodi yordamida har bir ta'rifdagi kalit so'zlar va semantik birliklar (masalan, "ekologik xavf", "resurs tejamlorligi", "barqaror rivojlanish", "innovatsiya") ajratib olindi va chastotaviy tahlil qilindi; uchinchi bosqichda — qiyosiy-tipologik tahlil asosida xorijiy, MDH va mahalliy yondashuvlar o'rtasidagi umumiy hamda farqli jihatlar aniqlandi; to'rtinchi, yakuniy bosqichda — induktiv-deduktiv sintez metodi yordamida barcha yondashuvlarni umumlashtiruvchi yangi, kompleks ta'rif va tasnif tizimi ishlab chiqildi.

Tadqiqotning ishonchiligi ta'minlash maqsadida olingan natijalar BMTning UNEP, Jahon banki, Xalqaro energetika agentligi (IEA) hamda Yevropa Ittifoqining rasmiy hujjatlari va statistik ma'lumotlari bilan o'zaro solishtirildi (triangulatsiya metodi). Bundan tashqari, tadqiqot natijalari O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategik hujjatlari (PQ-4477, PQ-436) [1; 2] bilan moslashtirilgan holda tahlil qilindi, bu esa nazariy xulosalarning amaliy ahamiyatini ta'minlaydi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

### 3.1. Yashil investitsiyalarning ajralib turuvchi xususiyatlari va belgilari

O'tkazilgan kontent-tahlil natijalariga ko'ra, "yashil investitsiyalar" tushunchasini an'anaviy investitsiyalardan ajratib turuvchi quyidagi asosiy xususiyatlar aniqlandi:

1. Ekologik yo'naltirilganlik. Investitsiya qarorlarining bosh mezon sifatida atrof-muhitga ko'rsatiladigan ijobiy ta'sir yoki salbiy ta'sirning kamayishi ko'rib chiqiladi.
2. Kompleks (uch o'lchamli) samaradorlik. Yashil investitsiyalar iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy samaradorlikni bir vaqtning o'zida ta'minlashga qaratiladi ("triple bottom line" tamoyili).
3. Uzoq muddatlilik. Yashil loyihalarning aksariyati yuqori boshlang'ich xarajat (CAPEX) va nisbatan uzoq qoplanish muddatiga (7–15 yil) ega bo'ladi.
4. O'lchanuvchanlik va shaffoflik. Yashil investitsiyalar natijalari xalqaro tan olingan MRV (Measurement, Reporting, Verification — o'lchash, hisobot berish, tasdiqlash) tizimlari asosida baholanishi lozim.
5. Innovatsion-texnologik xarakter. Yashil investitsiyalar ko'pincha yangi, ilg'or va resurs tejamlor texnologiyalarni joriy etish bilan bevosita bog'liq bo'ladi.
6. Tartibga solinganlik. Yashil investitsiyalar milliy va xalqaro taksonomiya, standart hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiqligi orqali tasdiqlanadi.
7. "Yashil tamg'alash" (greenwashing) xavfi. Mustaqil tashqi audit va sertifikatlashtirish mexanizmlari mavjud bo'lmagan taqdirda, investitsiyalarning haqiqiy ekologik samarasi soxtalashtirilishi mumkin, bu esa nazorat tizimlarini takomillashtirishni talab qiladi.



### 3.2. Yashil investitsiyalarning tasnifi

Yashil investitsiyalarning ko'p qirrali xarakterga ega ekanligi ularni turli mezonlar bo'yicha tasniflashni taqozo etadi. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan tasnifiy tizim 3-jadvalda keltirilgan.

3-jadval. Yashil investitsiyalarning tasnifiy mezonlari<sup>3</sup>

Tasnif mezonlari	Turlari	Qisqacha tavsifi
Manbasiga ko'ra	Davlat; xususiy; aralash (davlat-xususiy sheriklik); xalqaro (grant va imtiyozli kredit)	Mablag' kim tomonidan ajratilishiga qarab farqlanadi
Obyektiga (yo'nalishiga) ko'ra	Energetika (qayta tiklanuvchi manbalar); transport; suv xo'jaligi; chiqindilarni qayta ishlash; qishloq xo'jaligi; qurilish va infratuzilma	Investitsiya yo'naltirilgan ekologik soha
Instrumentiga ko'ra	Yashil obligatsiyalar (green bonds); yashil kreditlar; yashil aksiyalar; uglerod kreditlari; yashil sug'urta va lizing	Moliyalashtirish vositasining turi
Miqyosiga ko'ra	Mikrodaraja (korxonalar); mezodaraja (tarmoq/hudud); makrodaraja (milliy/global)	Investitsiya ta'sir ko'rsatadigan iqtisodiy daraja
Risk darajasiga ko'ra	Past riskli (energiya samaradorligi); o'rta riskli (qayta tiklanuvchi energetika); yuqori riskli (innovatsion "yashil-tex" startaplar)	Investitsiyaning moliyaviy-texnologik xavf darajasi

Keltirilgan tasnifiy tizim amaliy nuqtai nazardan muhim ahamiyatga ega, chunki u davlat statistika organlari, tijorat banklari hamda xalqaro moliya institutlariga yashil investitsiya loyihalarini aniq mezonlar asosida identifikatsiya qilish, ularni alohida hisobga olish va monitoring qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, tasnifiy tizim har bir investitsiya turi uchun mos moliyalashtirish instrumenti va risk boshqaruvi strategiyasini tanlashga ko'maklashadi.

### 3.3. Yashil investitsiyalarni rivojlantirish tamoyillari

O'tkazilgan tahlil asosida yashil investitsiyalarni samarali rivojlantirishning quyidagi asosiy tamoyillari tizimlashtirildi:

1. Ekologik samaradorlik ustuvorligi tamoyili. Har qanday investitsiya qarori ekologik ta'sir bahosi (EIA) asosida qabul qilinishi lozim.
2. Shaffoflik va hisobdorlik tamoyili. Yashil investitsiya loyihalari bo'yicha muntazam ravishda mustaqil audit va ochiq hisobotlar yuritilishi ta'minlanishi kerak.
3. Uzoq muddatli barqarorlik tamoyili. Qisqa muddatli moliyaviy foyda emas, balki uzoq muddatli ekologik-iqtisodiy barqarorlik ustuvor mezon sifatida belgilanadi.
4. Davlat-xususiy sheriklik tamoyili. Davlat tomonidan yaratiladigan qulay institutsional muhit xususiy sektorning yashil loyihalarga jalb etilishini rag'batlantiradi.
5. Innovatsion-texnologik integratsiya tamoyili. Raqamli texnologiyalar (IoT, sun'iy intellekt, blokcheyn) ning yashil monitoring tizimlariga integratsiyalashuvi ta'minlanadi.
6. Ijtimoiy mas'uliyat tamoyili. Investitsiya loyihalari mahalliy aholi turmush sifati va bandlikka ijobiy ta'sir ko'rsatishi lozim.
7. Xalqaro standartlarga muvofiqlik tamoyili. Milliy yashil investitsiya tizimi xalqaro tan olingan taksonomiya va standartlar bilan uyg'unlashtiriladi.
8. Risklarni diversifikatsiya qilish tamoyili. Yashil portfelni turli sohalar va instrumentlar bo'yicha taqsimlash orqali moliyaviy barqarorlik ta'minlanadi.

### 3.4. Xalqaro standartlar, taksonomiyalar va institutsional asoslar

Yashil investitsiyalarning samarali rivojlanishi ko'p jihatdan ularni tartibga soluvchi xalqaro standart va institutsional mexanizmlarning mavjudligiga bog'liq. Jahon amaliyotida shakllangan asosiy standart va tashabbuslar 4-jadvalda umimlashtirilgan.

3 Manba: muallif tomonidan yashil investitsiyalar tasnifi bo'yicha ishlab chiqilgan.

4-jadval. Yashil investitsiyalarni tartibga soluvchi asosiy xalqaro standart va tashabbuslar<sup>4</sup>

Standart / tashabbus	Tashkilot	Yili	Asosiy maqsadi
Yevropa Ittifoqi Yashil Taksonomiyasi (EU Taxonomy)	Yevropa Komissiyasi	2020	Iqtisodiy faoliyat turlarining ekologik barqarorlik mezonlariga muvofiqligini belgilash
Yashil obligatsiyalar tamoyillari (Green Bond Principles)	Xalqaro kapital bozorlari assotsiatsiyasi (ICMA)	2014	Yashil obligatsiyalar emissiyasi bo'yicha ixtiyoriy yo'riqnomalar
Iqlim obligatsiyalari standarti (Climate Bonds Standard)	Climate Bonds Initiative	2011	Iqlim bo'yicha sertifikatlangan moliyaviy instrumentlarni shakllantirish
ISO 14001	Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)	1996 / 2015	Atrof-muhitni boshqarish tizimi talablari
ISO 50001	Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO)	2011 / 2018	Energiya menejmenti tizimi talablari
Iqlim moliyaviy axborotini ochish bo'yicha tashabbus (TCFD)	Moliyaviy barqarorlik kengashi (FSB)	2017	Iqlim risklari bo'yicha moliyaviy hisobotlarni standartlashtirish
Mas'uliyatli investitsiyalash tamoyillari (PRI)	BMT Global Kelishuvi / UNEP FI	2006	Institutsional investorlar uchun ESG mezonlarini joriy etish

Keltirilgan standartlar tahlili shuni ko'rsatadiki, rivojlangan davlatlarda yashil investitsiyalarni tartibga solish ko'p pog'onali institutsional tizim asosida — qonunchilik (taksonomiya), moliyaviy bozor (obligatsiya va kredit standartlari), boshqaruv (ISO sertifikatlari) hamda hisobot berish (TCFD, PRI) darajalarini qamrab olgan holda amalga oshiriladi. O'zbekistonda esa hozircha milliy yashil taksonomiya tizimi to'liq shakllanmagan, bu esa xalqaro yashil moliya bozorlariga integratsiyalashuvni sekinlashtiruvchi asosiy omillardan biridir va alohida institutsional e'tiborni talab qiladi.

#### 4.1. Nazariy-uslubiy muammolar va bahsli jihatlar

O'tkazilgan tadqiqot bir qator nazariy-uslubiy muammolarni ham ochib berdi. Birinchidan, "yashil investitsiyalar" tushunchasining yagona, umume'tirof etilgan ta'rifi mavjud emasligi statistik hisobga olish va xalqaro qiyoslashda muayyan metodologik qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda — turli davlatlar va tashkilotlar bir xil investitsiya loyihasini turlicha tasniflashi mumkin. Ikkinchidan, "yashil tamg'alach" (greenwashing) hodisasi, ya'ni ekologik samarasi yetarlicha asoslanmagan loyihalarning "yashil" loyiha sifatida taqdim etilishi, investorlar ishonchini pasaytirishi hamda yashil moliya bozorining barqaror rivojlanish imkoniyatlarini cheklashi mumkin. Uchinchidan, milliy va xalqaro taksonomiyalar o'rtasidagi nomuvofiqlik (masalan, Yevropa Ittifoqi taksonomiyasi va boshqa mintaqaviy taksonomiyalar o'rtasidagi farqlar) transc chegaraviy yashil investitsiya oqimlarini murakkablashtirmoqda. To'rtinchidan, "ikki marta hisoblash" (double counting) muammosi, ya'ni bir xil ekologik natijaning bir necha moliyaviy instrument doirasida qayta-qayta hisobga olinishi, statistik ma'lumotlarning aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

#### 4.2. O'zbekiston sharoitida nazariy asoslarni amaliyotga tatbiq etish istiqbollari

Tadqiqot natijalari asosida O'zbekiston Respublikasida yashil investitsiyalarning nazariy-uslubiy asoslarini amaliyotga samarali tatbiq etish bo'yicha quyidagi istiqbolli yo'nalishlar belgilandi.

Birinchidan, Markaziy bank, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Statistika agentligi hamkorligida milliy "Yashil taksonomiya" tizimini ishlab chiqish va uni xalqaro (xususan, Yevropa Ittifoqi) standartlari bilan uyg'unlashtirish zarur. Bu, o'z navbatida, yashil investitsiyalarni aniq statistik hisobga olish va xalqaro investorlar uchun shaffof muhit yaratish imkonini beradi.

Ikkinchidan, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, xususan, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti bazasida "Yashil investitsiyalar va barqaror moliya" ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish, bu markaz negizida tarmoq va hudud kesimida yashil investitsiyalar monitoringi hamda ekspert-tahliliy faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Uchinchidan, ushbu maqolada ishlab chiqilgan nazariy tasnif va tamoyillar tizimi asosida amaliy baholash metodikasini (indekslar, reyting tizimlari) ishlab chiqish hamda uni mashinasozlik, energetika, qishloq xo'jaligi kabi aniq tarmoqlar misolida sinovdan o'tkazish kelgusi empirik tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lishi lozim.

4 Manba: muallif tomonidan xalqaro standartlar va tashabbuslar asosida umumlashtirilgan.



To'rtinchidan, "yashil tamg'alash" xavfini bartaraf etish maqsadida mustaqil sertifikatlash va auditorlik tashkilotlari faoliyatini yo'lga qo'yish, shuningdek, raqamli texnologiyalar (blokcheyn asosidagi MRV tizimlari) yordamida yashil investitsiya natijalarining shaffofligini ta'minlash tavsiya etiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yashil investitsiyalarning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganishga bag'ishlangan ushbu tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. "Yashil investitsiyalar" tushunchasi murakkab, ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning ildizlari XX asrning 60–70-yillaridagi atrof-muhit iqtisodiyoti nazariyasiga borib taqaladi va to'rt asosiy evolyutsion bosqich (genезis, konseptuallashtirish, institutsionallashtirish, moliyaviylashuv-raqamlashuv) orqali rivojlanib kelgan.

2. Xorijiy, MDH va mahalliy olimlarning yashil investitsiyalar tushunchasiga oid ta'riflarini qiyosiy tahlil qilish natijasida ularning umumiy jihatlari (kapital xarakteri, ekologik xavflarni kamaytirishga yo'naltirilganligi, barqarorlikka xizmat qilishi) va o'ziga xos farqlari (xorijiy olimlarda makroiqtisodiy-global yondashuv, MDH olimlarida ekologizatsiya jarayoniga urg'u, mahalliy olimlarda hududiy-tarmoqiy amaliy yondashuv) aniqlandi. Olingan natijalar asosida muallif tomonidan yangi, kompleks ta'rif ishlab chiqildi.

3. Yashil investitsiyalarning yetti asosiy ajralib turuvchi belgisi (ekologik yo'naltirilganlik, kompleks samaradorlik, uzoq muddatlilik, o'lchanuvchanlik, innovatsionlik, tartibga solinganlik, greenwashing xavfi) hamda besh mezon bo'yicha (manba, obyekt, instrument, miqyos, risk darajasi) tasnifiy tizim ishlab chiqildi, bu esa amaliyotda yashil investitsiyalarni aniqroq identifikatsiya qilish va hisobga olish imkonini beradi.

4. Xalqaro standart va taksonomiyalar tahlili shuni ko'rsatdiki, rivojlangan mamlakatlarda yashil investitsiyalarni tartibga solish ko'p pog'onali institutsional tizim asosida tashkil etilgan bo'lib, O'zbekistonda bunday tizimni shakllantirish hozirgi kun uchun dolzarb vazifa hisoblanadi.

5. Kelgusi tadqiqot yo'nalishlari sifatida ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy asoslarni aniq tarmoqlar (mashinasozlik, energetika, qishloq xo'jaligi) misolida empirik tekshirishni, shuningdek, milliy yashil taksonomiya loyihasini ishlab chiqish bo'yicha amaliy tavsiyalarni chuqurlashtirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktyabrdagi PQ-4477-son qarori. "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida". — URL: <https://lex.uz/docs/-4539502>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining 'yashil' iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida". — URL: <https://lex.uz/docs/-6303230>

3. Barbier, E.B. A Global Green New Deal: Rethinking the Economic Recovery. — Cambridge: Cambridge University Press, 2010. — 334 p.

4. Беркинов, Б.Б., Ашуров, Д.С. Минтақалар иқтисодиётини барқарор ривожлантиришнинг назарий асослари. — Тошкент: Iqtisodiyot, 2021. — 284 б.

5. Бобылев, С.Н., Захаров, В.М. «Зеленая» экономика и модернизация: эколого-экономические основы устойчивого развития // На пути к устойчивому развитию России. — 2012. — № 60. — 90 с.

6. Costanza, R., Daly, H.E., Bartholomew, J.A. Goals, Agenda, and Policy Recommendations for Ecological Economics // Ecological Economics: The Science and Management of Sustainability / ed. by R. Costanza. — New York: Columbia University Press, 1991. — P. 1–20.

7. Daly, H.E. Beyond Growth: The Economics of Sustainable Development. — Boston: Beacon Press, 1996. — 253 p.

8. European Commission. Regulation (EU) 2020/852 of the European Parliament and of the Council on the Establishment of a Framework to Facilitate Sustainable Investment. — Brussels, 2020.

9. ICMA. Green Bond Principles: Voluntary Process Guidelines for Issuing Green Bonds. — Paris: International Capital Market Association, 2021.

10. International Energy Agency. World Energy Investment 2024. — Paris: IEA Publications, 2024.

11. International Organization for Standardization. ISO 14001:2015 — Environmental Management Systems — Requirements with Guidance for Use. — Geneva: ISO, 2015.

12. International Organization for Standardization. ISO 50001:2018 — Energy Management Systems — Requirements with Guidance for Use. — Geneva: ISO, 2018.

13. Назаров, Ш.Х. Методологические аспекты повышения конкурентоспособности регионов: монография. — Ташкент: IFMR, 2014. — 212 с.



14. Пахомова, Н.В., Рихтер, К.К., Малышков, Г.Б. Стратегия устойчивого развития и переход к зеленой экономике: обновление приоритетов и механизмов // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия 5. Экономика. — 2013. — № 4. — С. 35–54.
15. Pearce, D., Barbier, E.B. Blueprint for a Sustainable Economy. — London: Earthscan, 2000. — 273 p.
16. Pigou, A.C. The Economics of Welfare. — London: Macmillan and Co., 1920. — 876 p.
17. Porter, M.E., van der Linde, C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship // Journal of Economic Perspectives. — 1995. — Vol. 9. — No. 4. — P. 97–118.
18. Садыков, А.М. Формирование и реализация новой стратегии развития Узбекистана: монография. — Ташкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. — 540 с.
19. Stern, N. The Economics of Climate Change: The Stern Review. — Cambridge: Cambridge University Press, 2007. — 692 p.
20. Task Force on Climate-related Financial Disclosures. Final Report: Recommendations of the Task Force on Climate-related Financial Disclosures. — Basel: Financial Stability Board, 2017.
21. UNEP. Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. — Nairobi: United Nations Environment Programme, 2011. — 631 p.
22. PRI Association. Annual Report 2023. — London: Principles for Responsible Investment, 2023.
23. World Bank. World Development Report 2010: Development and Climate Change. — Washington, D.C.: World Bank, 2010.
24. Захаров, В.М., Трофимов, И.Е. Устойчивое развитие: экология и экономика: учебное пособие. — М.: Московский университет имени С.Ю. Витте; Центр устойчивого развития и здоровья среды ИБР РАН, 2021. — 228 с.



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

---

**2026. № 6/5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>